

ZULFIYAXONIM HAYOT YŌLARI VA IJODI

Temirova Barno Umarali qizi

Namangan State University 4th year student of the Faculty of World Languages

Abstract: *Kurash jarchisi, ōzbek shoirasi, she'riy tōplam, xotin qizlar bilim yurti, turkum she'rlar.*

Kalit so'zlar: *Kiril va Mefodiy, Degrez, akademiya, aspirantura, atoqli, shoira, pyesa, opera, libretto, Hindiston, Misr, Mesopotamiya, qardosh turkiy,*

KIRISH QISM

Zulfiya Isroilova – taniqli va iqtidorli o'zbek shoirasi. Yorqin rassom, oddiy inson qalbini o'tkir his qilgan – mehnatkash, Sharq ayolining jamiyatdagi teng huquqi uchun mardonavar kurashgan ayol. Zulfiya she'riyatining nufuzi – bizning dabdabali murakkab davrimizning haqqoniy ifodasi, o'ziga xosligi, zamondoshlarimizning qalbi va harakatlarining yorqin tasviridir. O'zbek xalqining atoqli va ardoqli vakili, taniqli jamoat arbobi, xalqaro tinchlik uchun kurash jarchisi Zulfiya Isroilova xalqaro "Nilufar", Javoharlal Neru nomidagi hamda Davlat mukofatlari sohibasidir. Zulfiyaxonim Isroilova 1915-yili Toshkent shahrining qadimiy Degrez mahallasida tavallud topgan. Avval boshlang'ich maktabda, so'ng xotin – qizlar bilim yurtida tahsil olgan. 1935-1938-yillarda O'zbekiston fanlar akademiyasining til va adabiyot instituti aspiranturasida o'qigan. Shundan keyin turli nashriyotlarda ishlagan. 1935-yildan 1980-yilgacha, qariyb o'ttiz tilga yaqin respublikamizda keng tarqalgan "Saodat" nomli xotin – qizlar jurnalida bosh muharrir bo'lgan. Zulfiyaxonim Isroilova Hamid Olimjon bilan turmush qurgan. Biroq ular orzularga to'la hayot kechirayotgan pallada 1944-yili mashina halokati tufayli turmush o'rtog'idan ayrildi. Shoira esa 1996-yilda 81-yoshida vafot etadi. Shoira badiiy ijodga juda erta kirishdi. O'n yetti yoshida "Hayot varaqalari" deb atalmish dastlabki she'riy kitobini chop ettirdi. Uzoq ijodiy umri davomida o'ttizga yaqin she'riy to'plamlar, o'ndan ortiq dostonlar yaratdi. Shoira hammani o'ylatadigan, barcha kishilarga Jaxldor bo'lgan holatlarni she'rga soladi. Shuning uchun ham yozganlari ko'pchilikka manzur bo'ladi. Zulfiyaning ulkan iste'dodi faqat yurtimizdagina emas balki dunyo miqyosida ham e'tirof etilgan. U – xalqaro "Nilufar" mukofoti egasi.[1]

40-yillar oxirida e'lon qilingan Sovet davlatining san'at va adabiyot to'g'risidagi qarorlari o'zbek adabiyo-tiga ham katta zarar keltirdi. Zulfiya bad-bin kayfiyatlar — pessimistik kechinmalar kuychisi sifatida ta'na toshlari ostida qoldi. Shundan keyin u, boshqa qalamkash birodarlari singari, "davri g'oyalari" ni ifodalovchi she'rlar yozishga o'tdi. Lekin ko'p o'tmay, o'zbek ayollari hayotini yaxshi biluvchi shoira va jurnalist sifatida dugonalari haqida she'r va publitsistik maqolalar yozdi, ularni ijtimoiy faollikka chaqirdi, insoniy haq-huquqlarining poymol bo'lmasligi uchun kurashdi. 50-yillarning 2-yarmida u Osiyo va Afrika yozuvchilarining tinchlik va xalqaro birdamlik

shiori ostida o'tgan harakatida faol qatnashib, jahonning ko'pgina mamlakatlarida bo'ldi. Hindiston, Misr, Yaponiya va qo'shni respublikalarga qilgan safari shoira ijodida chuqur iz qoldirdi. "Mushoira", "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush", "Qozog'iston o'lanlari", "Men chizolmagan surat" singari she'rlari Zulfiyaga shuhrat keltirdi. Zulfiya she'rlarida tasvir etilayotgan hayot ko'lami kengayib, ijodiga xorijiy xalqlar hayoti manzaralari ham kirib keldi. 70-yillardan boshlab uning ijodidagi milliy hayot tasvirida yangi ranglar kamalagi paydo bo'ldi, haqqoniylik va his-hayajon kuchaydi. "O'ylar" (1965) she'riy guldastasi b-n boshlangan voqelikni falsafiy idrok etish tamoyili "Visol" (1972), "Yillar, yillar..." (1975) she'riy kitoblarida davom etib, shoira ijodida chinakam badiiy yuksalish davri boshlanganini namoyish etdi. U yana doston janriga qaytib, ustoz Oybekning so'nggi safariga bag'ishlangan "Quyoshli qalam" (1970) dostonini yaratdi. Ayni paytda shoira bolalarga bag'ishlangan turkum she'rlar ham yozdi ("Lolaqizg'aldoq", 1975). Zulfiya hayotining muhim bir qismini Hamid Olimjonning adabiy merosini o'rganish va nashr etish ishiga bag'ishladi. Ana shu jarayonning uzviy qismi sifatida u shoirning "Semurg' yoki Parizod va Bunyod" dostoni asosida qo'g'irchoq teatri uchun "Semurg'" pyesasi (S. Somova b-n hamkorlikda) hamda "Zaynab va Omon" operasi librettosini yozdi. A. S. Pushkin, M. Yu. Lermontov. N. A. Nekrasov, M. Voqif, L. Ukrainka, M. Dilboziy, S. Kaputikyan, E. Ognetsvet, Mustay Karim, Amrita Pritam, Ye. Bagryana va b. ning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Uning asarlari ko'plab chet tillarda, shuningdek, qardosh turkiy xalqlar tillarida nashr etilgan. Zulfiya xalqaro Javaharlal Neru (1968), "Nilufar" (1971) mukofotlari hamda Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti (1970) laureati. Shuningdek, u Bolgariyaning "Kirill va Mefodiy" (1972) ordeniga sazovor bo'lgan. O'zbekiston hukumati atoqli shoira shoiraning madaniyatimiz taraqqiyotidagi katta xizmatlarini e'tiborga olib, Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etdi. Toshkentdagi ko'chalardan biriga uning nomi berilgan.[2]

Zulfiyaxonim Isroilova hayot va ijod yollarida bilim olishga va adabiyotda anashunday bilimlar asosida she'rlar bitganini shu ikki maqoladi ko'rishimiz mumkin. Shoira teatr, rassomchilik, tarjimonlik va boshqa har jabhada ilg'or ayol ekani ham bilib oldik desak mubolag'a bo'lmaydi. Shoira shunday metin va bardoshli ayol bo'lgan. Hayot yollarida kam gap va kam suqim bo'lgan Zulfiya hayot chashmalaridan odob va ahloq ila suqorilgandir. U realis bo'lganligi uchun hayotga real nigoh bilan qaraydi va insonlarga ular ko'ra olmagan bazi ibir tuygu va otkir nigoh ortidagi haqiqatlarni oz she'rlarida jo qiladi.

1940-yillar oxirida e'lon qilingan Sovet Ittifoqining san'at va adabiyot to'g'risidagi qarorlari o'zbek adabiyotiga ham katta zarar keltirdi. Zulfiya baddin kayfiyatlar — pessimistik kechinmalar kuychisi sifatida ta'na toshlari ostida qoldi. Shundan keyin u, boshqa qalamkash birodarlari singari, „davr g'oyalari“ni ifodalovchi she'rlar yozishga o'tdi. Lekin ko'p o'tmay, o'zbek ayollari hayotini yaxshi biluvchi shoira va jurnalist sifatida dugonalari haqida she'r va publitsistik maqolalar yozdi, ularni ijtimoiy faollikka chaqirdi, insoniy haq-huquqlarining poymol bo'lmasligi uchun kurashdi.

Shoira sherlarining el aro mashhurligi tasodifiy emas. U bolaligidan olamga hayrat ko'zi bilan qarovchi, uning boshqalar ko'rolmaydigan jihatlarini ilg'ovchi qizaloq ekanligi bilan ajralib turardi. Buning ustiga, oilasidagi muhit ham yosh Zulfiyada badiiy ijodga ishtiyoqni alangalatardi. Shoira bolaligini shunday eslaydi: "Otamni... Isroil degrez der edilar. Otam zahmatkash temirchi edi. Otamning hamma vaqt olovga yo'ldosh kasbidan faqat zavq ko'rar edim. Otamday qudratli odam yo'q edi men uchun. Temirlar otam qo'lida chaqmoqlar taratishiga boqib, hayratda qolar edim. Uning qo'llari cho'g'ga aylangan temir parchasini istagan shaklga solib, inson uchun kerakli narsaga aylantirishga qodir edi. Men hali-hanuz otamday bolishni orzu qilaman, ammo na iloj, inson qalbiga kira bilish temirga ishlov berishdan mashaqqatliroq, yurakni chaqmoq kabi alanga oldirish har kimga ham muayassar bo'lavermas ekan..."

Mening onam o'zining ta'bincha, "usti butun – ichi tutun" ayollardan edi. U hamma vaqt kamgap, xayolchan edi, lekin fikrlari, o'ylari mudroq emasligini, unga mutelik, zaiflik yot ekanligini bilar edim. Ruhidagi ma'yuslik, ovozidagi hazinlik faqat uning xarakteriga xos bir sifatgina edi, xolos.

Onamning qancha-qancha qo'shiq va afsonalarni, doston va er-taklarni bilisjiiga aqlim bovar qilmasdi. Bu sehrli afsona va ertaklar bizga benihoya huzur bag'ishlar, o'ziga rom qilib olar, har safar yangi jilva kasb etardi. Aminmanki, mo'jizalar yaratishga qodir, jahonni ko'zga keng ochuvchi, insonni go'zallik sari yetaklovchi so'zga shaydolik hissini mening qalbidam ostona hatlab ko'chaga chiqmagan oddiy ayol – onam uyg'otgan..."

Zulfiya she'riyati ana shunday pokiza buloqlardan suv ichgan ijoddir. Ayni shu sababdan uning tinchlik haqidagi, inson ruhiya-tini g'ajib tashlay oladigan hijron to'g'risidagi, tabiatning ajib bir holati borasidagi she'rlari hech kimni befarq qoldirmaydi. Shu bois shoiraning barcha ayollarga, barcha onaiarga, barcha ma'shuqalarga xos, tushunarli, anglanarli bo'lgan she'riyati aslo eskirmaydi. Uning asarlarida halol inson tuyg'ularining porloq yulduzi charaqlab turadi.[1]

Xulosa o'rnida shuni aytish joiskiy shoira mehnatkash va irodali o'zbek ayoli timsolida xalq qalbida abadiy qolgan. Sovet davrida dunyoga kelgan bolsa ham rus kamunistik partiyalari ijod qilishiga ta'sir ko'rsatmagan. Har bir she'rga o'zgacha yondoshilganligi hayotning pastu balantini bosib o'tganligi, o'sha yo'llarda toblanganligini aks etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Toshkent tibbiyot akademiyasi - Kampus hayoti BOSH SAHIFA
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI 5 TA TASHABBUS TYUTORLIK FAOLIYATI
TALABALARGA TIBBIYOTNOMA GAZETACH YANGILIKLAR VA ELONLAR

TANLOVLAR BO'LIM YANGILIKLARI • YANGILIKLAR • ZULFIYAXONIM IJODINI
O'RGANAMIZ O'zbek shoirasi Zulfiyaxonim hayoti va unitilmas ijodini “Zulfiyani eslab”
mavzusi ostida yoritilib berilgan maqola

17/07/2020145 145

2.Manba <https://tafakkur.net/zulfiya.haqida>.

3.<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Zulfiya>